

## LINGUISTIC FEATURES OF THE SPEECH GENRE “WISH” IN THE OFFICIAL POLITICAL STYLE

*Durdona Sayfutdinova*

*Senior teacher of Andijan State University*

[saydur01041973@gmail.com](mailto:saydur01041973@gmail.com)

**Abstract.** *The article examines ritual speech used in the speech genre “wish” in an official business style; its expression in oral and monologue speech; The linguistic features of official political speech are discussed.*

**Keywords:** *addresser, addressee, fixed service time, official political speech, official speech, wish, greeting, macrotext, microtext, formality, ritual, official vocabulary.*

## RASMIY-SIYOSIY USLUBDAGI TILAK NUTQIY JANRINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Durdona Sayfutdinova*

*Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi*

[saydur01041973@gmail.com](mailto:saydur01041973@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Maqolada tilak nutqiy janrining rasmiy uslubdagi marosimiylik, uning og‘zaki va monologik nutqda ifodalanishi; rasmiy-siyosiy nutqdagi lingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *adresant, adresat, belgilangan rasmiy vaqt, rasmiy-siyosiy nutq, rasmiy nutq, tilak, tabrik, makromatn, mikromatn, rasmiylik, marosimiylik, rasmiy leksika.*

Rasmiy uslubdagi tilaklar publitsistik va so‘zlashuv ulubidagi tilaklardan marosimiylik xususiyatiga ko‘ra tubdan farqlanadi. Rasmiy uslubdagi tilaklarning eng xarakterli xususiyati ham uning marosimiylikidir. Uning marosimiylik, og‘zaki va monologik nutqda ifodalanishi, adresant, adresat, belgilangan rasmiy vaqt, joy, makonning mavjudligi, rasmiy-siyosiy leksik-grammatik vositalarning qo‘llanilishi kabi xususiyatlari rasmiy-siyosiy nutqdagi lingvistik xususiyatlarini ochib beradi. Rasmiy uslubdagi tilaklar turli rasmiy mavqye'ga ega shaxslarning rasmiy nutqi va tabriklari tarkibida kelib, shakliy va semantik jihatdan yaxlit, bir butun mikromatn sifatida shakllanadi. Masalan,

*O‘zbekiston respublikasi Prezidentining O‘zbekiston xalqiga bayram  
tabrigi [1; 1]*

***Aziz vatandoshlar!***

*Jonajon diyorimizga yangi – 2024-yil kirib kelmoqda.*

*Mana shu shukuhli damlarda duogo‘y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singillarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azmu shijoatli yoshlarimizni, chet ellardagi qadrli vatandoshlarimizni – ko‘pmillatli butun xalqimizni ushbu qutlug‘ ayyom bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.*

***Muhtaram do‘stlar!***

*Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o‘tishga qodir.*

*Shu ma'noda, 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.*

*Tariximizda birinchi marta umumxalq referendumini asosida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishni boshladik.*

*Ko‘plab nufuzli anjumanlarni yuqori saviyada o‘tkazdik.*

*Xalqaro maydonda muhim tashabbuslarni ilgari surdik.*

*Barqaror iqtisodiy o‘sinh sur'atlarini saqlab qolishga erishdik.*

*Respublikamizda yuqori texnologik zamonaviy sanoat korxonalarini, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog‘cha va maktablar, madaniyat va sport ob'ektlari barpo etildi. Yangi-yangi ish o‘rinlari ochilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz obod bo‘lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda.*

*Birgalikdagi mehnatimiz tufayli Yangi O‘zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Barcha erishgan yutuqlarimiz uchun siz, aziz vatandoshlarimga chin dildan minnatdorlik bildiraman.*

### ***Muhtaram do'stlar!***

*Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qildik.*

*Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.*

*Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.*

*Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.*

*Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etamiz.*

### ***Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!***

*Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, **barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.***

***Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin!***

***Go'zal Vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!***

*Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin! [2; 1]*

Ko'rinadiki, ushbu rasmiy nutq gipermatn shaklida ifodalangan va murojaat, tabrik, yutuqlar e'tirofi, minnatdorchilik, ma'lumot axborotlar (rejalar xronologiyasi), tilak, tabrik kabi ketma-ketlikdagi makro va mikromatn ko'rinishidagi nutqiy janrlar majmuidan tashkil topgan. Bunda tilak nutqiy janri mikromatnida **tabrik+tilak+tabrik** semantik qolipi qo'llanilgan.

Bunda Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman. Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin! Go'zal vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin! [2;1] tilak mazmunli mikromatn 3 ta sodda va qo'shma gaplardan iborat mikromatnni tashkil qiladi va fayzu-baraka tilayman, yurtimiz farovon bo'lsin, Yaratganning o'zi panohida asrasin kabi tilak jumalari ishtirokida tilak semasi ostida birlashadi.

**Rasmiy uslubdagi tilak nutqiy janrida belgilangan adresant va adresatlar ishtiroki muhim bo'lib, adresantning qonuniy vakolatlari doirasiga kiruvchi adresatlargagina yo'naltiriladi.** Masalan, prezident tabrigi, elchilar tabrigi, hokim tabrigi kabilar o'z adresatlariga ega. **Rasmiy nutqda adresatlar nutq yo'naltirilgan kasb egalari yoki shaxslarni nazarda tutadi.** Masalan, yuqoridagi tabrikda adresatlar *duogo'y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singillarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azmu shijoatli yoshlarimizni, chet ellardagi qadrlil vatandoshlarimizni – ko'pmillatli butun xalqimiz* kabi jumalarda o'z ifodasini topgan. **Prezident ijtimoiy mavqeyi va holatidan kelib chiqib, ushbu tilak nutqiy janri uchun vaqt, joy, makonning belgilanishi o'ziga xosdir.** *Jonajon diyorumizga yangi – 2024-yil kirib kelmoqda. Mana shu shukuhli damlarda* kabi jumalarda vaqt va makon munosablari ko'rsatilmoqda.

Shuni aytish kerakki, **tabrik+tilak+duo+tabrik** qismlarning ketma-ket kelishi, ayniqsa, bu qismlarning qo'shma gaplar orqali ifodalanishi tilak nutqiy janrida rasmiy grammatik xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Rasmiy tilak matnidagi *sihat-salomatlik, oilaviy baxt, tinchlik va fayzu baraka* kabi, *oila, har bir mahalla, butun yurtimiz* kabi semantik mantiqiy xronologik jumalar ketma-ketligi tilak nutqiy janrining rasmiy jumalari sifatida lisoniy kodlashadi. Rasmiy matnlarda tilak faqat ijobiy tilakka yo'naltirilishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, rasmiy tilaklar publitsistik va so‘zlashuv uslubi tilaklaridan rasmiylik, marosimiylik, rasmiy leksika, rasmiy grammatik vositalarning qo‘llanilishi va hokazolarga ko‘ra farqlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi \(president.uz\)](http://president.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi. “Xalq so‘zi”, 2024-yil, 1-yanvar, №1.
3. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва.: Художественная литература, 1986. – С. 428-472.
4. Дементьев В. Теория речевых жанров (Коммуникативные стратегии культуры). – М.: Знак, 2010. – 584 с.
5. Pulatjonovna, S. D. (2023). LINGUISTIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT. PEDAGOG, 6(11), 305-308.
6. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 1765-1771.
7. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of Consonant Opposition in Anlaut of the Uzbek Language. Academicia Globe, 2(6), 347-354.
8. Nurmanova, D. A. (2019). ТЕКСТ, КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ ФОРМА РЕПРЕЗЕНТАЦИИ" ЧАСТИ ОТ ЦЕЛОГО". Theoretical & Applied Science, (4), 582-585.